

**O‘ZBEKISTON JURNALISTIKA VA OMMAVIY  
KOMMUNIKATSIYALAR UNIVERSITETI HUZURIDAGI  
DSc.30/30.12.2019.Fil.30.21 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**O‘ZBEKISTON JURNALISTIKA VA OMMAVIY  
KOMMUNIKATSIYALAR UNIVERSITETI**

**Qosimov Shohrux Begaliyevich**

**O‘ZBEK MILLIY UYG‘ONISH ADABIYOTI MASALALARINI  
YORITISHDA OAVNING O‘RNI VA ROLI  
(Professor Begali Qosimov ilmiy-adabiy asarlari asosida)**

**10.00.09 – Jurnalistika**

**FILOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTASIYASI AVTOREFERATI**

**Toshkent-2025**

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati  
mundarijasi**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)  
on Philological Sciences**

**Оглавление автореферата доктора философии (PhD)  
по филологическим наукам**

**Qosimov Shohrux Begalievich**

O‘zbek milliy uyg‘onish adabiyoti masalalarini yoritishda OAVning o‘rni va roli  
(professor Begali Qosimov ilmiy-adabiy asarlari asosida).....

**Касымов Шохрух Бегалиевич**

Место и роль в освещении вопросов узбекской литературы национального  
возрождения (на основе научно-литературных трудов профессора Бегали  
Касымова).....

**Kasimov Shakrux Begaliyevich**

Place and Role of Mass Media in Covering the Issues of Uzbek Literature of  
National Revival (Based on Scientific and Literary Works of Professor Begali  
Kasimov).....

**E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati.....**

List of published works.....

Список опубликованных работ.....

**Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.4.PhD/Fil3021 raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiya O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, ingliz, rus (rezyume) Ilmiy kengashning veb-sahifasida ([www.navoi-uni.uz](http://www.navoi-uni.uz)) va "Ziyonet" Axborot ta'lim portalida ([www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:** **Jabborov Nurboy Abdulhakimovich**  
filologiya fanlari doktori, professor

**Rasmiy opponentlar:** **Halim Saidov** filologiya fanlari doktori  
**Davlatova Adiba Rahmatovna**  
filologiya fanlari doktori, dotsent

**Yetakchi tashkilot:** **Mirzo Ulug'bek nomidagi**  
**O'zbekiston Milliy universiteti**

Dissertatsiya himoyasi O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti huzuridagi DSc.30/30.12.2019.Fil.30.21 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil "\_\_\_" \_\_\_\_\_ soat \_\_\_\_\_dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: (Manzil:100147, Toshkent shahri, Markaz-5, 88-uy. Tel.: (99871) 207-09-06; email: ([journalism.univer@gmail.com](mailto:journalism.univer@gmail.com)).

Dissertatsiya bilan O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin. ( \_\_\_\_\_raqam bilan ro'yxatga olingan) (Manzil: 100147, Toshkent shahri. Markaz-5, 88-uy. Tel.: (99871) 207-09-06; email: [journalism.univer@gmail.com](mailto:journalism.univer@gmail.com)).

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil "\_\_\_" \_\_\_\_\_kuni tarqatildi.  
2025-yil "\_\_\_" \_\_\_\_\_dagi \_\_\_\_\_raqamli reestr bayonnomasi)

**Sh.Qudratxo'ja**  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash  
raisi, s.f.d., professor

**A.I.Safarov**  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash  
ilmiy kotibi, f.f.f.d. (PhD), dotsent

**N.F.Muratova**  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash  
qoshidagi ilmiy seminar raisi, f.f.d., dotsent

## **KIRISH (falsafa doktorligi (PhD) dissertatsiya annotatsiyasi)**

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahonda mamlakatlar iqtisodiy-ijtimoiy taraqqiyotining global tendensiyasi ommaviy axborot vositalarining ham taraqqiyotiga zamin hozirladi. Yangi asr jurnalistika ilmida jahon hamjamiyati rivojlanishining muhim omili sanalgan ommaviy nashrlar, asosli axborot, jamiyat, siyosat va ijtimoiy hayotdagi o'zgarishlar jarayonini xolis tahlil etgan holda, shaxs va jamiyat ehtiyojlariga xizmat ettirish zarurati kun tartibiga qo'yilmoqda.

Dunyo amaliyotida axborot shakllarini zamonaviy va istiqbolli mehnat bozori hamda shaxs va jamiyatning ma'rifiy-axloqiy talablari asosida diversifikatsiyalash, axborot uzatish modellarini texnologik taraqqiyot g'oyalari bilan bir qatorda bashariyatning ma'naviy-didaktik ehtiyojlariga uyg'unlashtirish, jurnalistika nazariyasi va metodologiyasining yetakchi g'oyalari tatbiq etishda uzviylik, uzluksizlik va izchillik tamoyillariga asoslanish tendensiyasi kuchayib bormoqda. Xalqaro aloqalar va o'zaro hamkorlik jurnalistika rivojining asosiy omillaridan biriga aylandi. Bu jarayonda nazariy bilimlarning hayotiyligini ta'minlash va ko'nikma darajasida shakllantirish masalalari alohida ahamiyat kasb etmoqda.

Mamlakatimizda ommaviy axborot vositalari tizimini isloh qilish, jumladan, publitsistika sohasini rivojlantirishning ilmiy-metodik vazifalarini hal etish, ilg'or xorijiy metod va metodologiyalarni joriy etish, nazariya va amaliyotni uyg'unlashtirish, jurnalistikaning boshqa sohalar, jumladan adabiyotshunoslik bilan sintezlashuvini baholash zarurati kuchayib bormoqda. Buni amalga oshirish maqsadida ushbu sohada maktab yaratgan olimlar ilmiy laboratoriyasiga chuqurroq kirish, ayniqsa, XX asr avvalida jamiyat hayotning barcha jabhalarini isloh etish, milliy matbuotni va publitsistikani shakllantirish va rivojlantirishga butun ijodiy-intellektual salohiyatini, bilim va tajribasini safarbar etgan ma'rifatparvar jadidlar publitsistik va adabiy merosiga doir ilmiy ishlarni jurnalistikaning bugungi taraqqiyot mezonlari asosida baholash muhim va dolzarbdir. Chunki: "Tarixda ikki buyuk Renessansga zamin bo'lgan mintaqamizda uchinchi Renessansni aynan jadid ajdodlarimiz amalga oshirishlari mumkin edi. Afsuski, mustabid tuzum ularning ezgu g'oya va amaliy harakatlarini to'la ro'yobga chiqarishga imkon bermadi. Biz bugun mamlakatimizda erkin fuqarolik jamiyati, huquqiy demokratik davlat barpo etar ekanmiz, jadid bobolarimizning gumanistik qarashlariga tayanamiz, ularning merosidan ma'naviy kuch-quvvat olamiz"<sup>1</sup>. Bu esa mustaqillik davri matbuotida jadidlar asos solgan o'zbek milliy uyg'onish adabiyoti masalalarini yoritishda OAVning o'rni va roli masalasini jadidchilik va jadid adabiyoti ilmiy maktabining asoschisi Begali Qosimov asarlari misolida o'rganishning ilmiy zaruriyat ekanini tasdiqlaydi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 21-oktabrdagi "O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" PF – 5850- son, 2020-yil 30-sentabrdagi "Ma'rifatparvar jadidchilik harakati namoyandalarini mukofotlash to'g'risida", 2020-yil 8-oktabrdagi "Qatag'on qurbonlarining merosini yanada chuqur o'rganish va ular xotirasini

---

<sup>1</sup> Мирзиёев Ш.М. Жадидлар меросини ўрганишга бағишланган Халқаро конференция иштирокчиларига табрик. Янги Ўзбекистон. – Тошкент, 2023 йил, 7 март.

abadiylashtirishga doir chora-tadbirlari to'g'risida" hamda 2020-yil 20-oktabrdagi "Mamlakatimizda o'zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmonlari; 2017-yil 20-apreldagi "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ – 2909-son, 2017-yil 24-maydagi "Qadimiy yozma manbalarni saqlash, tadqiqi va targ'ib qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ – 2995-son, 2017-yil 13-sentabrdagi "Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ib qilish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi to'g'risida"gi PQ – 3271-son Qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 13-apreldagi "Berdaq nomidagi Qoraqalpoq adabiyoti tarixi davlat muzeyi va Mahmudxo'ja Behbudiy uy-muzeyini tashkil etish to'g'risida"gi 206-son qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi.** Mazkur dissertatsiya respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. «Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish» ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** Jadidshunoslik alohida ilmiy yo'nalishga aylangan bugungi kunda sohaning atoqli namoyandalari ilmiy-adabiy va publitsistik merosi yuzasidan tadqiqotlar olib borilmoqda. O'zbek jadid adabiyoti bo'yicha ilmiy maktab yaratgan olim Begali Qosimov asarlari O'zbekistonda quyidagi yo'nalishlarda o'rganilgan: 1) atoqli ijodkorlar chiqichlari<sup>2</sup>. 2) adabiyotshunos, tarixchi va jurnalist olimlarning tahliliy maqolalari<sup>3</sup>. Ularda olim o'zbek adabiyotining barcha davrlari – mumtoz va jadid adabiyoti, adabiy aloqalar, zamonaviy adabiy jarayon bo'yicha yaratgan tadqiqotlarning ahamiyati, asarlarining xalqaro miqyosdagi e'tirofi haqida mulohaza bildirilgan. Olimning bu yo'nalishdagi izlanishlarni jadidlar merosini o'rganish butunlay taqiqlangan sho'rolar zamonida boshlagani, XX asr boshlarida 100 dan ortiq ijodkorlar jo'shqin adabiy muhit tashkil etib, milliy estetik tafakkur rivojiga munosib hissa qo'shgan haqidagi fikrlari aniqlangan. "So'nggi jadid

---

<sup>2</sup>Oripov A., Sharafiddinov O. Izlagan olim b'uladi. //Vatan, 1992 yil 23-30 dekabr; Oripov A. Imda qo'riq oshgan olim. /Qosimov B. O'zbek adabiyoti va adabiy aloqalari tarixi. – T.: Fan va texnologiya, 2008. – B.3-7; Sattoriy X. Beşikka osilgan k'un'giron. // Xalq s'uzi, 1992 yil 15 dekabr; Muhammad Ali. Bir daraxtning mevalarimiz. //Turkiston, 1992 yil 17 dekabr.

<sup>3</sup>Комилов Н. Тарих хақиқатини айтиш захмати –шараф. //Халқ сўзи, 1992 йил 18 декабрь; Юсупов Ш., Долимов У., Ризаев Ш. Фидокор олим. //Ватан, 1994 йил 11-сон; Расулов А. Устозлар изидан. //Тошкент хақиқати, 1992 йил 17 декабрь; Аҳмедов С. Тарихимизнинг толмас тадқиқотчиси. //Ўзбекистон овози, 1992 йил 18-декабрь; Сайди Умир. Шижоат. //Ўзбекистон адабиёти ва санъати, 1992 йил 16 декабрь; Саъдий М. Муаллимнинг тўйи. //Ватан, 1992 йил 23-30 декабрь; Жабборов Н., Меликулов Ж. Эътироф//Fidokor, 2002 йил 26 декабрь; Жабборов Н. "Виждон-ла юзма-юз иймон келадир...". //Tafakkur, 2006, 3-сон. –Б.58-68; Тожибоев Р. Маърифат фидойиси. //Ватан, 1992 йил 23-30 декабрь, 13-сон; Йўлдошев Қ. Олимнинг олами. //Ўзбекистон адабиёти ва санъати, 2002 йил 23-август; Каримов Б. Устоз ибрати. //Моҳият, 2002 йил 11 октябрь;

qissasi” nomli maqolalar to‘plami<sup>4</sup>da olim “So‘nggi jadid” (O.Sharafiddinov), “Adabiyotimiz Hamleti” (Sh.Rizaev), “Jadidshunosligimiz karvonboshisi” (N.Jabborov) deya e’tirof etilgan.

Begali Qosimov tadqiqotlari xalqaro miqyosda ham munosib e’tirof qozongan. Turkiyalik va germaniyalik adabiyotshunoslar olim ilmiy asarlariga munosabat bildirib, uning jadidshunoslik sohasidagi e’tiborga molik faoliyatini yuqori baholagan. Olimning “Milliy uyg‘onish: jasorat, ma’rifat, fidoyilik” monografiyasi Fatma Achiq tarjimasida Turkiyada nashr qilingan. Umuman, xorijlik adabiyotshunoslar olimning turkiy adabiyotshunoslik rivojiga ulkan hissa qo‘shganini e’tirof etganlar<sup>5</sup>.

Biroq mazkur maqolalar va kitoblarda olimning publitsistik merosi monografik asosda tahlil etilmagan. Ushbu dissertatsiya Begali Qosimov publitsistik asarlari alohida tadqiqot ob’ekti sifatida o‘rganilgani jihatidan yuqoridagi ilmiy ishlardan farq qiladi.

**Dissertasiya tadqiqotining dissertasiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi.** Dissertatsiya O‘zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining «O‘zbek jurnalistikasi tarixi, nazariy asoslari va dolzarb muammolari» mavzusi doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** mustaqillik davri ommaviy axborot vositalarida o‘zbek milliy uyg‘onish adabiyoti masalalari yoritilishiga xos tamoyillar, tendensiyalar, janr va metod xususiyatlari, jurnalistik tahrir qonuniyatlarini professor Begali Qosimov ijodi misolida monografik planda kompleks tadqiq qilishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

- o‘zbek milliy uyg‘onish adabiyoti masalalari yoritilishi misolida mustaqillik davri OAVning til, metod xususiyatlari va rivojlanish qonuniyatlarini aniqlash;
- milliy uyg‘onish davri o‘zbek adabiyoti masalalariga oid chiqishlar asosida jurnalistik tahrir, uning matbuotda aks etishi, bunga senzuraning, o‘z navbatida, erkin demokratik islohotlarning ta’siri muammolarini tadqiq qilish;
- o‘zbek milliy uyg‘onish adabiyoti masalalarining OAVda yoritilishiga xos tamoyillar va tendensiyalarni belgilash;
- milliy publitsistika va adabiyotshunoslikda ijtimoiy muammolar talqinidagi sintezlashuv jarayonlarini tahlil etish;
- OAV janr va metod xususiyatlarini o‘rganishda professor Begali Qosimov tadqiqotlarining o‘rni va ahamiyatini ko‘rsatish;

---

<sup>4</sup> Сўнги жадид қиссаси. (Бегали Қосимов замондошлари хотирасида. Тўпловчи ва нашрга тайёрловчилар: У.Жўрақулов, А.Қосимова, Ш.Қосимов). –Т.: Турон-иқбол, 2012.

<sup>5</sup> Sevgi Ahmet. Taşkent Devlet Özbek Dili ve Edebiyatı Üniversitesi Öğretim Üyesi Prof.Dr. Begali Kasimov’la bir çay sohbeti.//Çağrı Kültür Sanat Bilim Dergisi. 1998 Ocak, 42.Yıl, Sayı 458. Ингеборг Балдауф “Замон ва маконга саёҳатлар: жадидчилик утопияси ҳақида ўйлар” (2012 й. Германия), Содик Турал “Олимнинг ўлими-оламнинг ўлими” (2012 й, Туркия.), Фатма Очик “Севикли устозимга” (2012 йил, Туркия), Бекир Тумен “Умумтурк олими” (2012 йил, Туркия).

- Begali Qosimovning jadid adabiyotiga doir tadqiqotlari misolida OAVda milliylik, milliy istiqlol masalalarining talqin etilishi masalalarini o'rganish.

**Tadqiqotning obyektini** mustaqillik yillarida Begali Qosimovning o'zbek milliy uyg'onish adabiyoti muammolariga doir OAVdagi turli janrlarga oid asarlari, milliy matbuotning shakllanishi va rivojlanish bosqichlariga doir chiqishlari tashkil etadi.

**Tadqiqotning predmeti.** o'zbek milliy uyg'onish adabiyotiga doir tadqiqotlarning OAVda yoritilishi qonuniyatlari va asosiy tamoyillari, til va metod xususiyatlari, publitsistika va adabiyotshunoslik sintezi, jadid adabiyotida milliylik, milliy istiqlol g'oyasi masalalarining yoritilish tendensiyalari muammolari ishning predmeti hisoblanadi.

**Tadqiqotning usullari.** Tadqiqot jarayonida tarixiy-qiyosiy, funksional, semantik-struktural, statistik, tipologik hamda psixobiografik tahlil usullaridan foydalanildi.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi:**

publitsistika va adabiyotshunoslikda ijtimoiy muammolar talqinidagi sintezlashuv jarayonlarining OAVda yoritilishi qonuniyatlari aniqlanib, ushbu ikki yo'nalishning tarixan mushtarakligi asoslangan;

istiqlol davri publitsistikasida jadidshunoslik muammolarining yoritilishi tendensiyalari hamda o'zbek jadid adabiyotiga doir Begali Qosimov asarlarining matbuotda yoritilishi tamoyillari asosida OAV va ijtimoiy tafakkurdagi yangilanishda milliy uyg'onish adabiyotining o'rni dalillangan;

- OAVda ta'lim islohi, jadidchilikning tamal toshi hisoblangan yangi usul maktablarining avlod ta'limi va tarbiyasidagi o'rni, jadid adabiyotida Vatan va millat taraqqiysi masalalarini yoritishda Begali Qosimov asarlarining o'rni isbotlangan;

- Begali Qosimovning OAVdagi chiqishlari janr xususiyatlariga ko'ra tasniflanib, jadidchilik va jadid adabiyoti muammolariga doir olim asarlari misolida mavzuga yondashuv metodlari va metodologiyasi, jurnalistik tahrir masalalari aniqlangan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:**

tadqiqot natijalari ilmiy jamoatchilikni Begali Qosimov faoliyatining barcha qirralari bilan tanishtiradi, xususan, olimning ilmiy-ijodiy konsepsiyasi, publitsistikasidagi o'ziga xoslik, yangilik, uslubiy misollar orqali ko'rsatilgan;

olim publitsistikasida faktlar bilan ishlash texnikasi, hujjatlilik, qiyoslash mezonlari, sarlavha va matn mutanosibligiga ahamiyat qaratish, ilmiy-nazariy konsepsiyasi yoritilgan;

milliy uyg'onish davri o'zbek adabiyotini kompleks o'rgangan va OAV da keng yoritishga hissa qo'shgan, qo'llagan publitsistik janrlar tizimli o'rganilgan, asarlar tahlili orqali olim ma'naviy qiyofasini belgilovchi xususiyatlar aniqlangan.

**Tadqiqot natijalarning joriy qilinishi.** Jadidshunos olim Begali Qosimov ilmiy-adabiy asarlari misolida o'zbek milliy uyg'onish adabiyoti masalalarini

yoritishda OAVning oʻrni va rolini tadqiq etish boʻyicha erishilgan ilmiy natijalar asosida:

publitsistika va adabiyotshunoslikda ijtimoiy muammolar talqinidagi sintezlashuv jarayonlari hamda oʻzbek jadid adabiyotiga doir Begali Qosimov asarlarining matbuotda yoritilishi tendensiyalariga doir tahlillardan Toshkent davlat oʻzbek tili va adabiyoti universitetida 2017-2020-yillarda bajarilgan OT-F-030 – «Oʻzbek adabiyoti tarixi» koʻp jildlik monografiyani (7-jild) chop etish» mavzusidagi fundamental loyihaning “Milliy uygʻonish davri oʻzbek adabiyoti” qismida foydalanilgan (Toshkent davlat oʻzbek tili va adabiyoti universitetining 2023-yil 14-dekabrda №01/10 – 2679-son maʼlumotnomasi). Natijada loyiha jadidchilikning tamal toshi hisoblangan yangi usul maktablarining avlod taʼlimi va tarbiyasidagi oʻrni, taʼlim islohi, jadid adabiyotida Vatan va millat taraqqiysi masalalarining OAVda yoritilishi tamoyillariga doir nazariy qarashlar bilan boyigan.

jadidchilik va jadid adabiyoti muammolariga doir OAVdagi Begali Qosimov chiqishlarining janr xususiyatlari va didaktik qimmatiga doir xulosalar Toshkent davlat oʻzbek tili va adabiyoti universitetida 2021-2023-yillarda bajarilgan “PZ-2020042022 – “Turkiy tillarning lingvodidaktik elektron platformasini yaratish” mavzusidagi amaliy loyihada joriy etilgan (Toshkent davlat oʻzbek tili va adabiyoti universitetining 2023 yil 14 dekabrda №01/10-2680-son maʼlumotnomasi). Natijada jadid publitsistikasiga yondashuv metodi va metodologiyasi, faktlar bilan ishlash texnikasi, hujjatlilik, qiyoslash mezonlari, sarlavha va matn mutanosibliigi hamda jurnalistik tahrirning lingvodidaktik xususiyatlariga doir nazariy xulosalar ishlab chiqilgan.

Istiqlol davri publitsistikasida jadidshunoslik muammolari, oʻzbek jadid adabiyotiga doir Begali Qosimov asarlarining matbuotda yoritilishi tamoyillari hamda jadidchilikning asosi sanalgan yangi usul maktablarining avlod taʼlimi va tarbiyasidagi oʻrniga doir ilmiy xulosalardan “Oʻzbekiston tarixi” telekanalining “Mavzu”, “Tarixiy savol” va “Taqdimot” koʻrsatuvlari ssenariyarini tayyorlashda foydalanilgan. (Oʻzbekiston Milliy teleradiokompaniyasi “Oʻzbekiston” teleradiokanali” davlat muassasasining 2023-yil 14-dekabrda 06-28-2027-son maʼlumotnomasi). Natijada koʻrsatuvlar jadid adabiyoti va publitsistikasiga oid yangi maʼlumotlar bilan boyitilib, ilmiy-maʼrifiy qimmatini oshgan.

Oʻzbekiston jurnalistlar ijodiy uyushmasi xodimlari Sh.Qosimov tadqiqotlaridagi ilmiy-nazariy qarashlar, jumladan istiqloq davri publitsistikasida jadidshunoslik muammolarining yoritilishi qonuniyatlari hamda oʻzbek jadid adabiyotiga doir Begali Qosimov asarlarining matbuotda yoritilishi tendensiyalari, OAV va ijtimoiy tafakkur yangilanishida milliy uygʻonish adabiyotining oʻrni kabi masalalar yoshlarimizning maʼnaviyatini shakllantirishda, mustaqil OAVlarda faoliyat olib borayotgan yosh jurnalistlar bilan oʻtkazilgan ilmiy-amaliy suhbatlarda keng foydalanilgan.

Qosimov Sh. tadqiqotidagi, "Milliy uygʻonish davri 'zbek adabiyoti" publitsistika va adabiyotshunoslikda ijtimoiy muammolar talqinidagi sintezlashuv. jarayonlarining OAVda yoritilishi qonuniyatlari, tarixan mushtarakligiga doir

tahlillar ijodkor adabiy merosi haqidagi mavjud ilmiy qarashlar; istiqlol davri publitsistikasida jadidshunoslik muammolarining yoritilishi qonuniyatlari hamda; ta'lim islohi, jadidchilikning tamal toshi hisoblangan yangi usul maktablarining avlod ta'limi va tarbiyasidagi o'rni, jadid adabiyotida Vatan va millat taraqqiysi masalalarini OAVda yoritishda Begali Qosimov asarlarining o'rni kabi tadqiqotlar, O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi, ijodkor yoshlar klublariga oid ilmiy xulosalarda shuningdek, ijodkorlarning viloyatdagi maktablar va mahallalarda xalqimizni ayniqsa, yoshlarimizni kitob mutoalasiga bo'lgan muhabbatini oshirish yo'lidagi ma'naviy-marifiy rejalarini ishlab chiqishda foydalanildi.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Mazkur tadqiqot natijalari 3 ta xalqaro va 4 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

**Natijalarning e'lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 4 ta ilmiy ish, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy Attestatsiya Komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 4 ta ilmiy maqola, shundan 2 tasi respublika, 2 tasi xorijda nashr etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya ishi kirish, uchta bob, 138 sahifa matn, xulosa va tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish** qismida mavzuning dolzarbligi, zarurati, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, ob'ekti, predmeti, fan va texnologiyalar rivojining ustuvor yo'nalishlariga mosligi, xorijiy ilmiy-tadqiqotlar sharhi asoslanib, tadqiqotning ilmiy yangiligi, amaliy natijalari, ishonchliligi, nazariy va amaliy ahamiyati, amaliyotga joriy etilishi, aprobatsiyasi, e'lon qilingan ishlar va tadqiqot tuzilishi ko'rsatilgan.

Birinchi bob "**Publitsistika va adabiyotshunoslik: ijtimoiy muammolar talqinidagi sintezlashuv jarayonlarining OAVda yoritilishi qonuniyatlari**" deb nomlangan bo'lib, 1.1. faslida "**Publitsistika va adabiyotshunoslikning tarixan mushtarakligi masalasi**"ga to'xtalangan. Mustaqillik davri publitsistikasining o'ziga xos asoslari sifatida, eng avvalo, millat ma'naviy ildizlarini yoritish, ikkinchidan, istiqlol fidoyilari – jadidlar nomi va asarlarini to'laqonli xalqqa yetkazish, uchinchidan, yangicha tafakkurni shakllantirish ekanini ko'rsatish mumkin. "Publitsistik ijod deganda, odatda, voqelikni hujjatlar asosida qayta tiklash anglashiladi. Publitsistikaning har qanday ko'rinishida, publitsistik organizmning har bir xujayrasida ana shu omilning ta'siri sezilib turadi"<sup>6</sup>. Adabiyotshunos Begali Qosimovning adabiy-publitsistik maqolalari aynan jadidchilikka oid haqiqatlarni hujjatlar asosida qayta tiklashga qaratilgan. Olimning ilmiy konsepsiyasi mavzuga kompleks yondashuv hamda manbalardagi fakt va ma'lumotlarning qiyosiy tahlili turadi. Jadidchilik harakati va jadid adabiyoti shakllangan tarixiy davr, milliy ma'rifatdan erk va ozodlikni qo'lga kiritishgacha bo'lgan konseptual masalalarning adabiyotda aks etishi jarayoni olim

<sup>6</sup> Стюфляева М.И. Поэтика публицистики. – Воронеж: Воронеж. ун-т., 1975. – С. 6-7.

tadqiqotlarida publitsistika va adabiyotshunoslik uyg'unlashib ketganidan dalolat beradi. 1991-2001-yillardagi OAVni kuzatganimizda, mustaqillik, Vatan, tarixni haqqoniy yoritish masalasi yetakchi o'rinda bo'lgani kuzatiladi. Bunda publitsistikaning esse, suhbat, xabar, reportaj, maqola singari janrlaridan faol foydalanildi.

Begali Qosimovning OAVdagi jadidchilikka doir chiqishlari quyidagi yo'nalishlarda bo'lgani kuzatiladi:

- ✓ muayyan sanaga (umumxalq bayramlari, jadid ziyolilarining tavallud sanalari) bag'ishlangan suhbatlar;
- ✓ jadidshunos olimlarning yangi asarlariga yozilgan taqrizlar;
- ✓ Behbudiy, Munavvar Qori, Ibrat, Avloniy, Said Ahroriy, Fitrat, Cho'lpon va boshqa ziyolilar hayoti va ijodiga doir yangi ma'lumotlarning e'lon qilinishi;
- ✓ o'zbek uyg'onish adabiyoti namunalari sahnalashtirilishiga doir chiqishlar;
- ✓ jadidshunoslikning dolzarb muammolariga bag'ishlangan ilmiy-ommabop materiallarni nashr etish.

Publitsistika jurnalistikaning, badiiy publitsistika esa adabiyotning muhim yo'nalishlaridandir. Adabiyotshunoslik badiiy publitsistikani tadqiq etadi. "Publitsistikaning maqsadi – ma'lum bir faktga o'quvchi e'tiborini tortib, ular munosabatiga erishish va jamiyatga ta'sir o'tkazish. Publitsistikada hamisha muallif pozitsiyasi aniq ko'rsatiladi va badiiy to'qimalarga yo'l qo'yilmaydi. Publitsistikaning predmeti – hozirda yoki birmuncha vaqt oldin yuz bergan ma'lum bir voqea, hodisa, shuningdek ushbu voqea yoki hodisa haqida muallif fikri. Publitsistikada muallif o'z qarashlari haqida bir-birlari bilan bahsga kirishib, omma fikrini shakllantiradi. Publitsistikaning uslubi munozaraliligi va emotsionalligi bilan ajralib turadi"<sup>7</sup>.

XX asrning oxiri – XXI asr boshlariga kelib publitsistika g'oyaviy va uslubiy rang-baranglik jihatidan yanada takomillashdi. Ocherk, maqola, feleton kabi an'anaviy janrlar tarkibi esse, suhbat-intervyu, yon daftar, yozuvchi qaydlari, bosh maqola singari janr va janr ko'rinishlari hisobiga kengaydi. Jamiyatdagi ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy o'zgarishlar publitsistikasi janrlar tabiatiga ham ta'sir o'tkazdi. Milliy uyg'onish davrida boshlangan badiiy-publitsistik inersiya mustaqillik davriga kelib yangi bosqichga ko'tarildi. Publitsistlar uchun kechagi kunni tanqidiy idrok etish, unga yangicha baho berish, hayot taqozo etgan muammolarni dadil o'rta qo'yish imkoniyatlari paydo bo'ldi. Hozirgi davr publitsistikasida madaniy meros, milliy urf-odat va qadriyatlar, ma'naviy-axloqiy hamda ekologik muammolarga, zamon qahramonlariga e'tibor yanada ortdi. Geosiyosatdagi o'zgarishlar, globallashuv jarayoni publitsistikada ham yangilanish tendensiyalarini hosil qildi. Dunyoga hukmronlik qilish, gegemonlik g'oyalari bois ma'lum bir davlatlar urush girdobida qoldi. Ba'zi mamlakatlar rivojlangan davlatlarning xom ashyo bazasiga aylantirildi. Bu holat muayyan darajada ijtimoiy, siyosiy, madaniy sohalarda tanazzulni yuzaga keltirdi. Ijtimoiy-tarixiy muhitdagi

---

<sup>7</sup> Литература и язык. Современная иллюстрированная энциклопедия. — М.: Росмэн. Под редакцией проф. Горкина А.П. 2006.

bu kabi o'zgarishlar jihatidan XX asr va bugungi vaziyat ma'lum darajada bir-biriga yaqin ekanini ta'kidlash kerak. Xuddi jadidlar faoliyatida bo'lgani kabi bizning davrimizda ham milliy o'zlikni saqlab qolish, ma'rifat va taraqqiyotda rivojlangan davlatlardan orqada qolib ketmaslik uchun jamiyat hayotini isloh etish, millatning siyosiy-ijtimoiy ongini, adabiy-madaniy saviyasini oshirish ehtiyoj darajasiga ko'tarildi. Begali Qosimovning jadidchilik harakatiga doir tadqiqotlari ana shu masalalar kompleks o'rganilgani, adabiyotshunoslik va publitsistikani sintez qilgani jihatidan ahamiyatlidir.

Bobning ikkinchi faslida **“Mustaqillik davri OAVda o'zbek publitsistikasi genezisi muammolarining talqin etilishi”** tahliliga bag'ishlangan. Publitsistika ham xuddi badiiy adabiyot singari so'z san'atiga tayanadi, ya'ni ijodiy faoliyat turi hisoblanadi. Bu esa uning badiiy adabiyot bilan bir vaqtda shakllangani isbotidir. Alisher Navoiy dostonlari muqaddimasida so'z san'ati olam va odamdan ham qadimiyroq ekani, uni bilib, o'z o'rnida qo'llash zarurligiga urg'u berilgan. So'z insonning sharafi, komillik va o'zlikni anglash manbai, odamlarni ezgulikka chorlash, yovuzlikdan qaytarish asosi ekani ifodalangan. Keyinchalik islom dinining kirib kelishi natijasida Qur'on va hadislar haqiqatini to'laqonli anglash uchun olimlar, voizlar ham yetishib chiqdi. Ular o'sha davr va keyingi zamonlarda davr muammolarini hamda ijtimoiy-axloqiy masalalar yechimiga xizmat qilgani jihatidan publitsistika bilan uyg'un vazifani bajardi. Bu esa o'zbek publitsistikasining ildizlari qadimiy ekani isbotidir.

Publitsistika alohida soha bo'lsa-da, boshqa fanlar bilan o'zaro integratsiyada. Ya'ni u o'zida barcha sohalar bilimlarini qamrab oladi, analiz-sintez qilib, boyitib o'quvchiga qayta taqdim etadi. Publitsist adiblar zamondan ilgari yurib, ajdodlardan ibrat olishga, ba'zi tarix xatolarini takrorlamaslikka chaqiradi. Buguni qizg'in jarayonlarni tahlil qiladi, ayrim eskiliklarni inkor etadi, milliy mentalitet nuqtai nazaridan yangiliklarni qo'llab-quvvatlaydi yoki rad etadi. Demak, publitsistika o'z navbatida muayyan millatning, davlatning taraqqiyot tendensiyalarini aks ettiradi, tarixiy yuksalishni namoyon eta oladi. “Publitsistik ijod ijtimoiy-siyosiy faoliyat sifatida namoyon bo'lib, o'z oldiga faqat o'quvchilar va tinglovchilarga axborot berish, ularni mafkuraviy jihatdan tarbiyalash vazifasini qo'ymaydi, balki ularning ijtimoiy faolligini oshirishni ham ko'zda tutadi. Aynan shu tarzda u ijtimoiy ehtiyojlarni qondirishning eng qisqa yo'llarini ko'rsatib beradi”<sup>8</sup>.

Publitsistika quyidagi xususiyatlari bilan alohida ajralib turadi:

- ✓ muayyan voqelikni, tarixiy haqiqatni, turli sohalarni o'rganishga qaratilgan publitsistning shaxsiy pozitsiyasi, material tanlash didi va xulosasi aks etadi;
- ✓ har bir publitsistik asarda muallif “men”i, uslubi, shaxsiyati, ma'naviy-intellektual obrazi ham gavdalanadi;
- ✓ manbalarni qiyoslash, tasniflash, baholash jarayonida muallifning fuqarolik pozitsiyasi anglashiladi.

---

<sup>8</sup> Стюфляева М.И. Поэтика публицистики. – Воронеж: Воронеж. ун-т., 1975. – С. 6.

O‘zbek vaqtli matbuotining paydo bo‘lishi va rivojlanish tarixi haqida dastlab Abdulla Avloniyning yirik maqolasida, keyinchalik Ziyo Saidning “O‘zbek vaqtli matbuoti tarixi” kitobidan keng ma’lumot olish mumkin. Mualliflar milliy o‘zbek jurnalistikasining tarixi va nazariyasi, takomil bosqichlari, janrlar evolyusiyasi, gazetachilik va noshirlik amaliyoti borasida muhim faktlarni bayon etganlar. Keyinchalik, Izzat Sulton, Ozod Sharafiddinov, Ochil Tog‘aev, Saydi Umirov, Boybuta Do‘stqoraev, Halim Sayidov, Nilufar Namozovalarning maqola va tadqiqotlarida milliy matbuotimiz tarixining u yoki bu jihatlari tadqiq etildi.

Jadid yozuvchi-shoirlarning keng qamrovli faoliyati, maslak va harakatning asl mohiyatini ko‘rsatib beruvchi maqola, suhbat, intervyu, reportaj, ko‘rsatuvlarning tili, uslubi, muallifning muammoga yondashuv mezonlari publitsistikaning xususiyatini belgilaydi. Bu kabi materiallarga istiqloq matbuotida keng o‘rin berilishining ikki omili bor: birinchisi, qariyb yuz yil mobaynida xalqdan yashirib kelingan tarixiy haqiqatlar ochilgani bo‘lsa, ikkinchidan, milliy mustaqillikni mustahkamlashda jadid matbuoti materiallaridan foydalanish zarurati katta edi. Begali Qosimov tadqiqotlarida bunga erishildi. Chunki “Olimning bitiruv ishidan tortib nomzodlik dissertatsiyasigacha, yozgan maqola, risola va monografiyalaridan doktorlik tadqiqotlarigacha aniq maqsad, mantiqiy-badiiy tahlil, adabiy-estetik talqin tamoyili yetakchilik qiladi”<sup>9</sup>. Ayni shu tamoyil olimning o‘zbek adabiyotshunosligi barobarida, publitsistika rivojiga katta hissa qo‘shishini ta’minladi.

Umuman, mustaqillik davri milliy OAVda o‘zbek jurnalistikasi va publitsistikasi genezisi hamda individual xususiyatlarini ochib berish, chop etilgan materiallarni mavzuiy tasniflash, jamiyat taraqqiyotida jadid matbuotining o‘rnini yoritish tendensiyasi yetakchilik qildi.

Ushbu bobning uchinchi faslida **“Istiqloq davri publitsistikasida jadidshunoslik muammolarining yoritilishi qonuniyatlari”** tadqiq qilingan. Mustaqillikning dastlabki o‘n yilida milliy o‘zlikni anglash, qadimgi qadriyat va an’analarga qaytish, buning uchun esa boy tarixiy, adabiy merosni tiklash va millat ongiga singdirish ishlari muhim vazifa sifatida kun tartibiga qo‘yildi. Professor Begali Qosimov milliy g‘oya va mafkurani shakllantirish, takomillishtirish va uni xalq ongiga singdirish bosh maqsad bo‘lgan kezda millat ziyolilarining XIX asr oxiri – XX asr avvalida bu yo‘lda olib borgan faoliyatiga tayanish zaruriyatini ta’kidladi.

Yangi davr publitsistikasida jadidshunoslik muammolari quyidagi tamoyillar asosida yoritildi: 1) “Istiqloq fidoyilari” seriyasidagi kitoblar orqali; 2) jadid matbuoti shakllanishi, takomili va tugatilishiga doir maqolalarda; 3) badiiy-publitsistik bahs va munozaralar shaklida. “Istiqloq fidoyilari” seriyasida Mustaf Cho‘qay, Abdulhamid Sulaymon o‘g‘li Cho‘lpon, Otajon Hoshim, Ishoqxon Ibrat, Abdulla Avloniy, Behbudiy, Siddiqiy-Ajziy va Abdurauf Fitrat asarlari nashr etilib, ular biografiyasi, ijodiy merosining muhim qirralari yoritildi. “Istiqloq qahramonlari” turkumida Behbudiy, Avloniy, Fitrat, Hoji Muin, Vadud Mahmud “Tanlangan asarlar”i chop etilishi jadidlar adabiy merosini o‘rganishda alohida

<sup>9</sup> Сўнги жадид кссаси. (Бегали Қосимов замондошлари хотирасида). –Т.: Турон-икбол, 2012. –Б .258.

o‘rin tutdi. Ushbu nashrlar jami shoiru adiblarning publitsistik ruhdagi she‘rlari va maqolalarida ko‘tarilgan millat va milliyat, erk va ozodlik, Vatan va millat taraqqiyoti, milliy ma‘rifatni yuksaltirish kabi g‘oyalarni ifodalagan jihatidan qimmatlidir.

Publitsistik maqolalarda jadidchilikning takomil bosqichlari, “usuli savtiya”ga asoslangan yangi maktab nazariyasi va amaliyoti, jadid adabiyoti va ijtimoiy-siyosiy hayot, mutaraqiy millatlar ma‘rifati va madaniyati, milliy matbuotning shakllanishi va rivoji masalalari yoritildi. “Taraqiy”, “Oyna”, “Sadoi Farg‘ona”, “Sadoi Turkiston”, “Maorif va o‘qitg‘uchi”, “Mushtum”, “Hurriyat”, “Xurshid” singari gazeta va jurnallar materiallari misolida o‘zbek jurnalistikasi bosib o‘tgan yo‘ldan uning tadrijiy taraqqiyotigacha, publitsistik janrlar ko‘lamining kengayishidan jamiyat hayotining barcha jabhalarini isloh etish va millat siyosiy ongini o‘stirishgacha bo‘lgan muammolar o‘z aksini topdi.

Markaziy Osiyoda jadidchilik g‘oyalarini yoyishda kuchli vosita milliy matbuot edi. Jadidlar davriy matbuotni nafaqat axborot uzatish, balki jamiyat hayotini isloh etish vositasi deb bilgan. Jadid matbuoti millat dunyoqarashini kengaytirish va mafkuraviy uyg‘onishiga jiddiy ta‘sir ko‘rsatdi. Sharq va G‘arb madaniyati masalalariga munosabat orqali milliy o‘zlikni asrash masalasi kun tartibiga qo‘yildi. Jumladan, Cho‘lponning “Vatanimiz Turkistonda temiryo‘llar” maqolasida “Ovro‘poning mo‘dosi, shishasi va buzuq axloqidan namuna olmaslik, ularga bu jihatdan taqlid qilmaslik, balki ilm, fan, hunar, sanoatg‘a o‘xshashlik madaniyatlaridan namuna olub, jaholatdan qutulish”<sup>10</sup> g‘oyasi ilgari surilgan.

Mustaqillik yillari milliy matbuot sahifalarida jadidchilik g‘oyalari, jadid adabiyoti va publitsistikasi bilan bog‘liq suhbat, bahs shaklidagi materiallar yetakchilik qiladi. Jumladan, “O‘zbekiston adabiyoti va san‘ati” gazetasining 2008-yil 3-oktabr va 28-noyabr, 2009-yil 10-aprel va 26-iyun sonlarida adabiyotshunoslar – Naim Karimov va Bahodir Karimovning Cho‘lpon ijodiyoti, adabiy-estetik qarashlari, faoliyatiga bag‘ishlangan suhbatlari, Naim Karimov va Dilmurod Quronov o‘rtasidagi bahs jadidchilik harakati va uning namoyandalari ijodiga doir tasavvurlarni boyitgani jihatidan ahamiyatlidir.

Umuman, istiqbol davri publitsistikasida jadidchilik bilan bog‘liq masalalar konseptual asosda yoritildi. XX va XXI asr avvalidagi ijtimoiy-tarixiy vaziyat, istibdodga isyon, milliy ozodlik, dunyo tamadduniga munosabat, milliy matbuot va maorif muammolari qiyosiy tahlil etildi. Jadidchilik va jadid adabiyotini o‘rganish istiqbollari belgilandi.

**“O‘zbek milliy uyg‘onish adabiyotiga doir Begali Qosimov asarlarining OAVda yoritilishi tendensiyalari”** deb nomlangan ikkinchi bobning dastlabki faslida **“OAV va ijtimoiy tafakkurdagi yangilanish: o‘zbek milliy uyg‘onish adabiyotining o‘rni”** masalasi o‘rganilgan. Mustaqillik davrida boshqa sohalarda bo‘lgani kabi ommaviy axborot vositalari ham yangilandi, milliy tiklanish g‘oyasiga yo‘naltirildi. Yangi matbuot nashrlari ta‘sis etildi. OAVda o‘z davrining fenomenal harakati bo‘lgan jadidchilik g‘oyalariga bag‘ishlangan maqolalar, ocherklar, davra suhbatlari e‘lon qilindi. Jumladan, 1996-yili “Ma‘rifat” gazetasida

---

<sup>10</sup> “Садои Фарғона”, 1914 йил 6 июнь

chop etilgan davra suhbatda jadidshunos Begali Qosimov: “Millatning qiyofasi deganda men nimani tushunaman? Dunyoda yuzlab-minglab millatlar bor, ular bir-birlaridan o‘zlariga xos xususiyatlariga ko‘ra farq qiladilar... turkiy xalqlar, xususan o‘zbek millati haqida ham shunday gaplarni uchratish mumkin. Yorqin misol tariqasida Ahmad Zaki Validiyning Turkistonga bag‘ishlab yozgan asarini keltirish mumkin. Unda bu masalalarga u kengroq qaragan. Shubhasiz, buning markazida o‘zbeklar turadi. Ularga xos muhim milliy xususiyatlardan bittasi jonlilikdir – bitmas faollikdir, deydi Validiy. Jaloliddin Rumiyan tortib keyingi davrlarda o‘tgan kishilardan misollar keltiradi. Turmushning eng og‘ir mushkulotlarida ham sabr-toqatlilik, chidamlilik, ochiq fikr va serfarzandlik bu xalqqa xos. Va yana aytadiki, bu millat ortiqcha semirib ketmasligi uchun nafsini tiya oladi. Intizomsevarligi bilan ajralib turadi. Kurashlar, uloqlar, ko‘pkarilar asrlardan buyon bu xalqni chiniqtirib kelgan – degan fikrlarni bayon etgan”<sup>11</sup>. Ma’lumki, Ahmad Zaki Validiy faol jadidlardan, yetuk tarixchi bo‘lgan.

Yangicha tafakkur – jadidchilik oldidagi asosiy vazifalardan. Bu jihatdan u istiqlool davri publitsistikasi bilan uyg‘undir. Begali Qosimov tadqiqotlarida bu masala yetakchi o‘rinni egallaydi. Olim jadidchilikning doirasini toraytirish, uni faqat ma’rifiy harakatchilik deb tushunish to‘g‘ri emasligini asoslaydi. Uning fikricha: “Jadidchilik: 1) jamiyatning barcha qatlamlarini jalb eta oldi. Uyg‘onish mafkurasi bo‘lib xizmat qildi; 2) mustaqillik uchun kurash olib bordi. Jadidlar g‘ayrati va tashabbusi bilan dunyo ko‘rgan Turkiston muxtoriyati bu yo‘ldagi amaliy harakat natijasi edi; 3) maorif va madaniyatni, matbuotni ijtimoiy-siyosiy maqsadlarga moslab chiqdi”<sup>12</sup>. Turkiston jadidlari sa’y-harakati bilan xayriya jamiyatlari tashkil etilib, millat boylari bu jamiyatlarga mablag‘larini tikdilar. Maktab-maorifni isloh etishdan yangi matbuotni shakllantirish va rivojlantirishgacha, milliy teatr va zamonaviy oliy ta’limni yo‘lga qo‘yishdan yangi adabiyotni maydonga keltirishgacha bo‘lgan keng ko‘lamli faoliyatni ana shu jamiyatlar mablag‘i hisobidan amalga oshirdilar. Maqsad – millatni jaholat va g‘aflat uyqusidan uyg‘otish edi.

Jadidlarning mustaqillik uchun kurashi uch yo‘nalishda kechgan. Begali Qosimov fikricha, bular: “1) Rusiyaga tobelikdan zo‘rlilik bilan qutulish, istiqloolni kuch bilan olish (Dukchi eshon qo‘zg‘oloni, 1916-yil mardikorlik harakati, Bosmachilik); 2) Murosa yo‘li. Ruslar yordamida ma’rifatga erishish. Ma’rifat masalasida haq-huquq olish, milliy xususiyatlarni tiklash (I.Gasprali, M.Behbudiy); 3) Hamkorlik yo‘li. Chor ma’murlari, so‘ng esa Sho‘ro hukumati bilan birga ularning dasturlarida qatnashish va imkon bo‘lishi bilan mustaqillikni qo‘lga olish. Buning uchun ma’lum tayyorgarlik ko‘rib borish (Munavvarqori, Hamza, Avloniy)”<sup>13</sup>.

Mustaqillik davri OAVda o‘zbek jadidchilik g‘oyasi intervyu, reportaj, publitsistik ocherk kabi janrlarda yoritildi. Ularda publitsistika qonuniyatlari asosida, voqelik, ma’lumot, tahlil, mulohazalar sodda, ravon tilda, hujjatlilik

<sup>11</sup> Ўзбекистон қиёфаси: мозийга назар, муҳокама, мушоҳада (Давра суҳбати). //Маърифат, 1996 йил 6 март.

<sup>12</sup> Қосимов Б. Миллий уйғониш: жасорат, маърифат, фидойилик. – Тошкент: Маънавият, 2002. – Б.6

<sup>13</sup> Қосимов Б. Танланган асарлар. Миллий уйғониш даври ўзбек адабиёти. Уч жилдлик. 2-жилд. – Тошкент: Фафур Фулом номидаги НМИУ, 2022. – Б.17

asosida ifodalandi. Davr talabiga binoan jadidchilik va jadidshunoslik, yangi adabiyot masalalari faktlar, hodisalar ko‘lami, voqelik natijalari to‘g‘risida tezkor, sifatli xabar berishga asoslanildi.

Bobning ikkinchi faslida **“OAVda ta‘lim islohi masalalarini yoritishda olim asarlarining ahamiyati”** tadqiq qilindi. Begali Qosimov asarlarida jadidlarning ta‘lim islohiga doir nazariy qarashlari va amaliy faoliyati chuqur yoritilgan. Olimning OAVdagi bu mavzuga doir chiqishlari aniq tarixiy fakt va ma‘lumotlarga asoslanilgani, tahliliy quvvati va istiqlol davri muammolariga bog‘langani jihatdan qimmatlidir. Xususiyatiga ko‘ra ularni ikki guruhga bo‘lish mumkin: 1) yangi maktab g‘oyasi va uning hayotga tatbig‘i; 2) Milliy universitetni tashkil etish.

Ta‘lim tizimini isloh qilish, ya‘ni yangi maktab – “usuli savtiya” metodi asosida o‘qitish g‘oyasini Begali Qosimov “jadidchilikning tamal toshi” deb ataydi. Chunki Vatan va Millatni mustamlaka iskanjasidan ozod qilish, taraqqiy etgan millatlar darajasiga yuksaltirish uchun yangi avlodni tarbiyalab yetishtirish zarur edi. Busiz maktab va maorifni rivojlantirish imkonsiz edi. Olim fikricha: “...bugungi o‘quvchi tarix, jug‘rofiya, iqtisod, fizika, kimyo, matematika kabi zamonaviy fanlarni bilishi kerak. So‘nggi uch-to‘rt asr dunyo taqdirini boshqa o‘zanga solib yubordi. Ovruponi oldinga olib chiqdi. Uning qo‘lini sarbaland qildi. Endi Ovrupo ilm-fanini egallamasdan dunyo bilan barobar yashab bo‘lmaydi. Bu ilm-fanni o‘zlashtirmoq uchun Ovrupo tillarini bilmoq kerak. Ayni paytda o‘zlikni ham saqlamoq lozim. Din-diyonat ham zarur. Xullas, yashamoq uchun uchala jihatni ham ushlamoq kerak bo‘ladi. Ushlaganda ham hech birini suiiste‘mol qilmasdan. Aks holda muvozanat buziladi. Muvozanat buzilishi esa, yomon oqibatlariga olib keladi. Masalan, yolg‘izgina din ushlansa, dunyo qo‘ldan ketadi. Faqat o‘zlik, millat desak, yana dunyodan ajrab qolamiz. Birovning biz bilan ishi bo‘lmaydi. Ovrupolashsak, o‘zlik yo‘qoladi. Bu ham fojia. Muvozanat kerak”<sup>14</sup>. Olimning OAVdagi chiqishlarida jadidlar ana shu muvozanatni saqlay olgani, ular qiyinchilik bilan ochgan “usuli savtiya” maktablari, ular uchun yozilgan darsliklar ahamiyati chuqur tahlil etilgan. Chor Rossiyasining rus-tuzem maktablarini tashkil etish orqali milliy maorifga zarba berishga uringani dalillangan. Istiqlol davri maorifini rivojlantirishda jadidlar tajribasidan foydalanish zarurati asoslangan.

Jadidlar millat yoshlari zamonaviy oliy ta‘lim olishini ta‘minlashda ikki yo‘ldan bordi: 1) yoshlarni taraqqiy etgan davlatlarga yuborib o‘qitish; 2) Milliy universitetni tashkil etish. Turkiston yoshlari “Jamiyati xayriya“ mablag‘lari hisobidan dastlab Ufadagi “Oliya”, Orenburgdagi “Husayniya” madrasalarida, shuningdek, Istanbulda o‘qigan. Olim aniqlashicha, Hamza “Dorulvoizin”da, G‘ozi Yunus dorulmualliminda o‘qigan. Sherhali Turdievning yozishicha: “20-yillarning boshida turkistonlik talabalar faqat Germaniyada emas, Fransiya va Yaponiyada ham bo‘lganlar. ”Rafiq“ imzoli kishining “Farg‘ona” gazetasida yozishicha, shu yillari xorijda o‘qib turgan turkistonlik yoshlarning umumiy adadi 500 dan oshiq

---

<sup>14</sup> Қосимов Б. Миллий уйғониш: жасорат, маърифат, фидойилик. – Тошкент: Маънавият, 2002. – Б.17-18

bo‘lgan ekan”<sup>15</sup>. Lekin o‘tgan asr 20-yillaridan sho‘rolar siyosati o‘zgargach, yoshlar Germaniyadan chaqirib olindi. Ularning aksari “Germaniya agenti”, ”josus” deya ayblanib, qatag‘on qilindi. Jadidlarning rivojlangan davlatlarda o‘qitish orqali milliy kadrlar tayyorlash dasturi amalga oshmay qoldi.

Jadidlar zamonaviy milliy oliy ta‘lim muassasalarini tashkil etish zaruratini ham to‘liq anglab yetgan, bu yo‘lda jiddu jahd qilgan. Ular “... zamonaviy oliy maktab fikridan ham voz kechmadilar. Imkon qadar uni amalga oshirish chorasini izladilar. 1918-yili yuzaga kelgan sharoitdan, ayrim rus liberal demokrat ziyolilarining xayrixohligidan foydalandilar. 9-aprelda Munavvarqori Abdurashidxonov hovlisida 9 kishilik tashkiliy hay‘at ish boshladi... universitetning tashkiliy tuzilishlaridan tortib, sho‘ba fakultetlari-yu eng muhim sohalarining dasturlarigacha ishlab chiqildi... 1918-yil 12-mayda Eski shaharda Munavvarqori bosh bo‘lgan Turkiston Musulmon xalq dorulfununi talabalariga o‘z eshiklarini ochdi. 15-mayda nizomi qabul qilindi”<sup>16</sup>. Olimning aniqlashicha, dorulfunun uch (quyi, o‘rta, yuqori) bosqichli bo‘lib, 5 yillik dorulmualliminni ham ko‘zda tutar edi. Qisqa muddatda 23 maktab tashkil topdi, 299 muallim jalb etildi. Ulardan 22 kishi oliy diniy madrasalarni, 2 kishi Rusiya universitetlarini bitirgan edilar. Biroq rasmiylashtirishni kundalik siyosat darajasiga ko‘targan Sho‘ro hukumati musulmon dorulfununi faoliyatiga yo‘l bermadi. Besh yilga mo‘ljallangan dorulmuallimin 4 oylik kursga aylantirildi va o‘sha 1918-yilning sentabr o‘rtalaridayoq tugatildi. Rus tilini yetarli bilmagan mahalliy yoshlar oliy tahsildan mahrum bo‘lib qolaverdilar<sup>17</sup>.

Olimning bu boradagi maqola va suhbatlari jadid va yangi davr publitsistikasi xususiyatlari sintez qilangani bilan ham ahamiyatlidir.

Bobning uchinchi fasli **“Milliy-ma‘naviy yuksalish omillari: jadid adabiyotidagi Vatan va millat masalalarining OAVdagi talqini”** muammosi tahliliga bag‘ishlangan. Vatan va millat, milliyat masalalari Begali Qosimovning OAVdagi chiqishlari asosini tashkil etadi. Bu jihatdan olim jadidlar bilan maslakdosh edi, deyish mumkin. Olimning maqolalari, ayniqsa, Vatan mavzusiga bag‘ishlangan mulohazalari orasida Tavallo ijodi va shaxsiyatiga munosabat alohida ajralib turadi. Shoir ijodining ilk kezlaridayoq Millat va Vatan hayotini isloh etishga doir aniq fikrlar yozgani va asarlari tabiatiga mahorat bilan singdirgani olim tadqiqotlarida konseptual yoritilgan. “Shoir Vatan va Millat fojiasini dil-dildan his etdi. Bu hol uning she‘rlariga so‘ngsiz iztirob, tunganmas dard-alam olib kirdi. Bu dard Vatan dardi edi. Bu iztirob Millat iztirobi edi. An’anaviy g‘azallardagi ishq iztirobiga o‘rgangan ko‘ngillar birdan hushyor tortdi. To‘g‘ri, bu she‘rlarning vazni va ohangi an’anaviy edi, aruzda edi, biroq mazmuni tamom yangi edi. Mana, uning fikru zikrini band qilgan muammolar:

*Jumla fikrim kecha-kunduz Sizga oid, millatim,  
Sen salomat- men farog‘at, illatingdur – illatim.*

<sup>15</sup> Турдиев Ш. Улар Германияда ўқиган эдилар. – Тошкент: Фан, 1991. – Б.69.

<sup>16</sup> Қосимов Б. Уйғонмоқ дунё билан баробар яшамокдир. //Ёзувчи, 1997 йил 16, 17-сонлари.

<sup>17</sup> Қосимов Б. Миллат ғурури. //Ўзбекистон адабиёти ва санъати, 2000 йил 6-сон.

Tavallo Vatan mavzuciga alohida e'tibor beradi. She'rlaridan biri hatto "Suyukli Vatan haqinda" deb atalgan. Uning she'rlarida "Turon", "Turkiston" atamalari, tabiiyki ko'p uchraydi".<sup>18</sup> Bu kabi tahlillar o'quvchi qalbida Vatanga muhabbat tuyg'usini kuchaytiradi.

Olimning aniqlashicha, millat atamasini dastlab qariyb ikki yarim ming yil avval Demokrit qo'llagan. Alloma miilatni "har bir mamlakatning yagona sohibi", deya izohlagan. Zero, ...din va irq, millat va mazhab masalasi turkiy xalqlarda hech bir zamon chetga surib qo'yilgan emas... Milliyat tushunchasi birlikni talab qildi. Birlik deyilganda, asosan lisoniy, irqiy, diniy mushtaraklik ko'zda tutiladi"<sup>19</sup>. Olim Alisher Navoiy ijodini ham millat, milliyat tushunchalari asosida tadqiq qilgan.

Begali Qosimovning ilmiy-publitsistik asarlari nafaqat tarixiy adabiy jarayon, adabiy-estetik qarashlar, balki ta'lim, fan, millat, yuksalish kabi katta mavzularni qamrab oldi. Olim publitsistikasining yetakchi xususiyatlaridan biri – unda ilmiylik, falsafiy mushohada, psixologik talqin yetakchilik qilishi; muallif ijtimoiy-estetik ideali o'ziga xos tarzda namoyon bo'lishidir. Zero, har qanday publitsistik asar markazida muallif turadi. Asarlarining tub mohiyati, publitsistik konsepsiyasi, maqsadi va ijtimoiy-ma'naviy ko'lami olim shaxsiyati, ilmiy-ijodiy konsepsiyasi bilan bevosita bog'liqdir. Olim Vatan va millat bilan bog'liq qarashlarini mana bunday ifodalaydi: "Vatanni sevmok undan shunchaki quvonmok, g'ururlanmok emas. Uni dil-dildan anglamok, u bilan nafas olmok, u bilan yashamokdir. Uni yashnatmok, obod etmok, u uchun kurashmokdir. Afsuski, o'tgan asrning 60-yillarida Vatan bilan birga Vatan muhabbati ham bizdan tortib olingan edi. So'ng keyingi 70 yil davomida poyama-poya so'ndirib kelindi. Millat, Vatan tashunchalari kommunistik mafkuraga moslab kelindi... Millat tushunchasi hamisha Vatan bilan yonma-yondir, misoli jismu jondir. Birini birisiz tasavvur qilib bo'lmaydi"<sup>20</sup>. Olimning matbuotda bosilgan aksar maqolalari zaminida ushbu konseptual fikrlar asos vazifasini o'tagan. Begali Qosimovning Vatanga muhabbati chuqur bilim, yuksak tafakkur va teran amaliy asoslarga ega. Olim publitsistik asarlari tadqiq etilganda, u tayanadigan eng mustahkam axloqiy kategoriya halollik, mehr-oqibat, ilmiy mezon esa haqiqat ekani ayon bo'ladi.

**III bob. Jadidchilik va jadid adabiyoti muammolarining OAVda yoritilishi: janr, metod va jurnalistik tahrir masalalari. 3.1 § "Olimning OAVdagi chiqishlari: janr xususiyatlari"** deb nomlangan. Ma'lumki, jurnalistikaning o'ziga xos janrlari, ularning spesifik belgilari mavjud. Maqola, suhbat, reportaj, intervyu, sketch, ocherk, feleton, publitsistik esse va xat shular jumlasidandir. Tabiiyki, har bir janr boshqasidan prinsipial farqlarga ega. Badiiy adabiyotdagi har uchala tur va ularga xos janrlarning tarixiy shakllangani e'tiborga olinsa, jurnalistika janrlari ham asarlar tabiatiga ko'ra tasniflanadi. Lekin yangicha yondashuv mezonlari, ifodada individuallikka erishuv talabiga ko'ra janrlar sinkretizmi sodir bo'lishi ham tabiiy jarayon. Shu nuqtai nazardan, Begali Qosimov publitsistikasi quyidagi yo'nalishlarga oid ekani kuzatiladi:

<sup>18</sup> Қосимов Б. Ватан, миллат манфаати муқаддасдир// Фидокор, 1999 йил 11 май сони.

<sup>19</sup> Қосимов Б. Миллий уйғониш: жасорат, маърифат, фидойилик. – Тошкент: Маънавият, 2002. – Б.65

<sup>20</sup> Қосимов Б. Биз нечун севаміз Ўзбекистонни? /Ватан ва миллат муқаддасдир. -Т.: Маънавият, 2000. – Б.5-6

- ✓ bosma nashrlardagi publitsistik maqolalari va suhbatlari;
- ✓ mualliflik teleko‘rsatuvlari;
- ✓ xorijiy OAVdagi chiqishlari;
- ✓ suhbat, intervyu, ochiq xat, tabriknoma, qaydlari;
- ✓ radiodagi chiqishlar.

Mavzu nuqtai nazaridan esa quyidagi sohalarga e‘tibor qaratilgani aniqlandi:

- ✓ adabiy manbashunoslik va matnshunoslik masalalari;
- ✓ milliy uyg‘onish davri o‘zbek adabiyotini tadqiq etish muammolari;
- ✓ jadid ijodkorlarining tarjimai holi va asarlarini tadqiq etish metodologiyasi;
- ✓ Alisher Navoiy ijodini o‘rganishning ustuvor vazifalari;
- ✓ mumtoz matnlarga yondashish, adabiy tahlil prinsiplari;
